



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari.....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes.....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar.....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli.....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi.....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

<p style="writing-mode: vertical-rl; transform: rotate(180deg);">MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS</p>	<p>O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari 229 Abirova Umida Nazarovna</p> <p>Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari..... 232 Adhamova Diyora Sanjar qizi</p> <p>Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy 239 Tangriyev Abdukarim Tovashevich</p> <p>Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati..... 244 Hafizov Shahriyor Shavkatovich</p> <p>Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari 248 Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi</p> <p>Axborotning gnoseologik mohiyati..... 256 Kamolova Munajatxon Jaloldinovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari 259 Mamatova Aziza Bo'ribojevna</p> <p>Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari 262 Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich</p> <p>Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi..... 267 Maxkamova Dilafuz Aliyevna</p> <p>Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv 271 Normamatova Kamola Gulmamat qizi</p> <p>O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida)..... 274 S. Sh. Azamatova</p> <p>Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari 277 Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi</p> <p>Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari..... 282 Xolova Mohigul Shavkatovna</p> <p>Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish..... 287 Xudoyberganov Atham</p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish 291 Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi</p> <p>Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление 295 Кадирова Наргиза Азаматовна</p> <p>Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка) 298 Мамырбаева Дина</p> <p>Структура и стратегии развития предметных компетенций 304 Наимова Мафтунабону Файзулложоновна</p>
--	--



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA MORFOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH



Ganiyeva Shodiya Azizovna

Farg'ona davlat universiteti

Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası professori v.b.,

filologiya fanlari doktori (DSc)

ORCID: 0000-0003-1427-9770

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida morfologik kompetentlikni shakllantirish masalasi yoritilgan. Til o'rganish jarayonida morfologik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarning grammatik fikrlashini shakllantiradi, nutqni to'g'ri tuzish, so'z shakllarini to'g'ri qo'llash hamda til birliklarini ongli ravishda farqlashga yordam beradi. Maqolada o'quvchilarda so'zning tarkibini tahlil qilish, so'z yasovchi va o'zgartiruvchi qo'shimchalarni ajratish, nutq qismlarini to'g'ri aniqlash hamda grammatik tahlil asosida nutq madaniyatini rivojlantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: morfologik kompetensiya, kompetentlik, grammatik tahlil, so'z yasalishi, boshlang'ich ta'lim, metodika, nutq madaniyati.

Abstract: This article discusses the issue of developing morphological competence in primary school students. The development of morphological knowledge and skills in the language learning process helps form students' grammatical thinking, enables correct sentence construction, proper use of word forms, and conscious differentiation of linguistic units. The article presents methods for teaching students to analyze word structure, distinguish between derivational and inflectional affixes, accurately identify parts of speech, and develop speech culture based on grammatical analysis.

Key words: morphological competence, competency, grammatical analysis, word formation, primary education, methodology, speech culture.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос формирования морфологической компетенции у учащихся начальных классов. Развитие морфологических знаний и навыков в процессе изучения языка способствует формированию грамматического мышления у учащихся, правильному построению речи, корректному использованию форм слов и осознанному различению языковых единиц. В статье представлены пути обучения учащихся анализу структуры слова, выделению словообразовательных и формообразующих аффиксов, правильному определению частей речи, а также развитию культуры речи на основе грамматического анализа.

Ключевые слова: морфологическая компетенция, компетентность, грамматический анализ, словообразование, начальное образование, методика, культура речи.

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Tilning morfologik tizimini o'zlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarida grammatik fikrlashni, nutqni to'g'ri va aniq ifodalashni ta'minlaydi. Morfologiya – so'zning shakl, ma'no va grammatik jihatlarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi sifatida o'quvchilarda til tizimiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Shu boisdan morfologik kompetensiya – til birliklarining grammatik shakllarini anglash, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish, morfologik tahlil va so'z yasash jarayonlarini idrok etish qobiliyati – o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Noam Chomskiy tomonidan kiritilgan "kompetensiya" tushunchasi ^[1] zamonaviy pedagogikada shaxsning bilim, ko'nikma va malakalari uyg'unligini anglatadi. Boshlang'ich sinflarda morfologik kompetensiyani shakllantirish jarayoni o'quvchilarda til birliklarini anglash, ularni nutqiy faoliyatda to'g'ri ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari pedagogik adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi ^[1]. Kompetensiya shaxsning umumiy tayyorgarligini bildirsa, kompetentlik – amaliy faoliyatda o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llash qobiliyatini anglatadi. Morfologik kompetensiya

esa tilshunoslik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Metodist olimlar ta'kidlaganidek, kompetensiya – shaxsning bilim, tajriba va motivatsiyasini uyg'unlashtiruvchi tizim bo'lib, o'quvchi faoliyatining sifat darajasini belgilaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida morfologik kompetensiyani shakllantirish masalasi G'ulomov, Qodirov, Qosimova kabi olimlarning metodik ishlanmalarida ham muhim o'rin egallaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, o'quvchilarda morfologik bilimlarni shakllantirish uchun tizimli mashqlar, so'z tahlili, gap tuzish va sintaktik bog'lanishlarni o'rganishga asoslangan mashg'ulotlar samarali natija beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda morfologik kompetensiyani shakllantirishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy obyekti – 1–4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan “Ona tili” darslari mazmuni va ularni o'qitish metodikasi. Maqolada nazariy tahlil, ta'limiy kuzatuv, taqqoslash va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Morfologiya boshlang'ich sinfda an'anaviy ravishda o'rganiladigan ona tilining bo'limlaridan biridir. Shu sababli bu bo'limni o'rganish mazmuni va metodikasi masalalari dolzarb emasdek tuyuladi. Shu bilan birga, o'quv maqsadlarining o'zgarishi, yosh o'quvchilar tomonidan Davlat ta'lim standartining ona tili bo'yicha o'quv dasturini o'zlashtirish natijalari hamda o'qituvchilarning ilg'or tajribalari yutuqlariga yangi talablarning paydo bo'lishi morfologiya bo'yicha darslarning mazmuni, rejalashtirilishi va tashkil etilishiga doimiy ta'sir ko'rsatadi. Morfologiyaning vazifalariga grammatikaning asosiy tushunchalarini (grammatik shakl, grammatik kategoriya, grammatik ma'no) o'rganish, so'zlarni nutq qismlari bo'yicha va nutq qismlari ichida – semantik-grammatik toifalar bo'yicha taqsimlash, grammatik toifalarni ko'rib chiqish hamda nutqning alohida qismlarini shakllantirish kiradi [3].

“Kompetensiya” atamasining tarixiga nazar solar ekanmiz, uni ilk bor AQSHning Massachusetts universitetida XX-asrning o'rtalarida Noam Chomskiy tomonidan tilshunoslik fanida qo'llanilganligiga guvoh bo'lamiz. Noam Chomskiy tomonidan “til kompetensiyasi” atamasi orqali tilshunoslikka kiritilgan [1].

“Competence” atamasi “to compete” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, “bellashmoq” degan ma'nolarni bildiradi [6]. “Kompetentlik” va “kompetensiya” ta'limda pedagogika fanining asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta'rifga ega bo'lmagan murakkab, ko'p komponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko'rsatadi [11].

Tadqiqotchilar fikricha, ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo'yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta'lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo'naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin; ko'pincha esa kompetensiya bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi. Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etadi, kompetentlik esa individual xarakterga egadir. Kompetentlikning asosiy mezon mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi. Ilmiy manbalarda kompetentlik va kompetensiyaning quyidagi ta'riflarini uchratish mumkin:

- motivlashgan qobiliyat;
- shaxsning xususiyat va sifatleri, shaxsiy chizgisi;
- faoliyatga tayyorgarlik mezon;
- masalani hal etish va uning natijalarini olish uchun zarur bo'lgan qobiliyat;
- faoliyatga bog'liq bilim, ko'nikma, malaka va tajriba (inson tomonidan o'zlashtirilgan masalani yechish, usullar va yo'llarini bir butunga birlashtirish), shu bilan birga shaxsning motivlashgan va hissiy-irodaviy sohasi [5; 7; 8; 9; 10].

Morfologiya metodikasi – grammatika metodikasining nutq qismlarini o'rganishda o'quvchilar tomonidan grammatik tushunchalar va mashqlarni o'zlashtirish jarayonlarini, nutq qismlarini ishlatishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llarini, deklensiya, konjugatsiya va boshqalarni shakllantirish hamda ulardan foydalanishni o'rganadigan bo'limidir. Bu holda yuzaga keladigan odatiy qiyinchiliklar va xatolar, ularning chastotasi, sabablari va ularni yo'qotish usullari ham o'rganiladi. Morfologiyani o'rganish metodikasining xususiyatlari uni o'rganish maqsadlari bilan belgilanadi. Morfologiyani o'rganishning kognitiv maqsadi asosiy morfologik tushunchalarni o'zlashtirishdir. Morfologiyani o'rganishning amaliy maqsadlari esa morfologik ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishdir; ularning asosiysi – nutq qismlarini ajratish va morfologik tahlil qilishdir. Morfologiya



leksikologiya va so'z yasalishi bilan jips bog'langan. Morfologiya, asosan, so'zning grammatik xususiyatlarini o'rganadi. So'zning grammatik ma'nosi doimo leksik ma'nosi bilan birga namoyon bo'ladi. Har bir so'z, bir tomondan, shu so'zga tegishli bo'lgan ma'lum o'ziga xos leksik-grammatik guruh belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so'zning o'z leksik ma'nosiga ega bo'ladi. So'z uchun muqarrar morfemik tarkib xarakterli bo'lib, bunga so'zning leksik ma'nosi va qator grammatik belgilari bog'liq bo'ladi. Yangi so'z qaysi usul bilan yaratilmasin, u doimo grammatik shakllanadi va o'zining leksik ma'nosiga ega bo'ladi. Har bir so'z turkumida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. So'zning morfemik tarkibi va yangi so'z yasalish usullari tilshunoslik fanining so'z yasalishi bo'limida, grammatika va leksikologiyadan ajratilmagan holda o'rganiladi. Morfologiya va sintaksis har tomonlama o'zaro bog'langan.

Morfologiyada, asosan, so'zlarning grammatik ma'nosi va uni ifodalash shakllari o'rganiladi; sintaksisda esa so'zlarni o'zaro bog'lanib so'z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatilishi o'rganiladi. So'z morfologiyada ham, sintaksisda ham o'rganiladi, ammo o'rganish obyekti turlicha bo'ladi. Sintaksisning o'rganish obyekti – gapdir; unda so'z gap yoki so'z birikmasida boshqa so'zlar bilan ma'no va grammatik jihatdan bog'langan holda o'rganiladi. Morfologiyada esa so'z gapdan tashqarida ham o'rganilishi mumkin; so'zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiruvchi so'zlar bilan o'zaro munosabati nuqtai nazaridan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so'zga bunday turlicha yondashuv ularning o'zaro bog'liqligini inkor etmaydi, aksincha, bu bog'liqlik so'z va gapning o'zida mujassamdir. Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'quvchilariga predmetlararo ichki bog'lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'qitish metodikasini belgilaydi. Tilning barcha (leksik, fonetik, so'z yasalishi, grammatik) tomonlari o'zaro bog'langan va har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'quvchilar tilni ongli o'zlashtirishlari uchun tilning har bir tomoni xususiyatlarini va ular o'rtasidagi bog'lanishni o'zlashtirishlari zarur. 1-4-sinfda ona tilini o'rganish tizimi fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi va grammatikaning o'zaro bog'lanishi mohiyatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu hol dastur materiallarini o'rganish tartibini belgilashda ham, ta'lim mazmunini (dastur bo'limlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishni) aniqlashda ham inobatga olinadi.

Tilning barcha jihatlarining o'zaro ta'siri uning aloqa vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Tilning asosiy birligi sifatida aloqa maqsadida so'zni to'g'ri talaffuz qilish yoki yozish, shu tilda so'zlashuvchi barcha kishilarga bir xilda tushunarli bo'lishi, gapda grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi lozim. Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanishi mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda o'rganilishi hisobga olinadi. "So'z" mavzusi o'tilayotganda o'quvchilar tomonidan so'zning talaffuzi, leksik ma'nosi, morfologik tarkibi, grammatik belgilari, yasalishi, nutqda ishlatilishi va yozilishini yaxlit tushunishga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda o'qituvchi so'zning nom bo'lib xizmat qilishini ham, morfemik tarkibi va leksik ma'nosining o'zaro ta'sirini ham o'quvchilarning tushunib olishlariga erishishi zarur.

Morfologik tahlilning mohiyati – so'zning qaysi so'z turkumi ekani, gapda qanday grammatik formada kelganini ifodalaydi. So'z tarkibiga ko'ra tahlil quyidagicha o'tkazilishi mumkin:

1. So'zga so'roq berish va u nimani anglatishini aniqlash.
2. O'zakni aniqlash. Buning uchun so'zga o'zakdosh so'zlar tanlanadi. O'zakdosh so'zlar taqqoslanadi va umumiy qismi (o'zak) aniqlanadi.
3. So'z yasovchi qo'shimchani aniqlash. Bu qo'shimcha yangi so'z yasash uchun xizmat qilishini aytish.
4. So'z o'zgartiruvchi (forma yasovchi) qo'shimchani aniqlash. Bu qo'shimcha so'zni boshqa so'z bilan bog'lash uchun xizmat qilishini aytish.

To'liq morfologik tahlilda o'quvchi so'z turkumining o'zi o'rgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf o'quvchisi shu so'z qanday savolga javob bo'lishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs, narsa belgisi, harakati). Morfologik tahlilning vazifasi – hozirgi o'zbek tilida so'z qanday ma'noli qismlardan tuzilganini aniqlashdir. Morfologik tahlil III-sinfda boshlanadi. Bu sinfda o'quvchilarga o'zakdosh so'zlar, o'zak – o'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ekani, so'z yasovchi qo'shimchalar va so'z o'zgartiruvchi (forma yasovchi) qo'shimchalar haqida elementar ma'lumot beriladi ^[2].

III-sinfda so'z turkumlari o'tilgach, morfologik tahlil quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- **Ot:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Birlik yoki ko'plikda.
- **Sifat:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- **Fe'l:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz.

Og'zaki tahlil namunasi: Mevali daraxtlar gulladi. Mevali – sifat, qanday? – mevali; daraxtlar oti bilan bog'langan: mevali daraxtlar; daraxtlar – ot, nimalar? – daraxtlar, ko'plikda; gulladi – fe'l, nima qildi? – gulladi, bo'lishli.

IV-sinfda o'rganilgan mavzularni hisobga olib, morfologik tahlil biroz to'ldiriladi va quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- **Ot:** 1. So'z turkumi. 2. Bosh kelishik shakli. 3. Birlik yoki ko'plikda. 4. Egalik qo'shimchasi (shaxs-soni). 5. Kelishik.
- **Sifat:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- **Son:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Qaysi ot bilan bog'langan.
- **Olmosh (kishilik olmoshi):** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Shaxs-soni. 4. Kelishik.
- **Fe'l:** 1. So'z turkumi. 2. So'rog'i. 3. Bo'lishli yoki bo'lishsiz. 4. Shaxs-soni. 5. Zamoni.

So'z turkumiga ko'ra tahlil og'zaki va yozma tarzda o'tkaziladi; uni mustaqil mashq sifatida topshirish ham mumkin. To'liq bo'lmagan morfologik tahlildan xilma-xil grammatik vazifalarni bajarish maqsadida yangi mavzu bilan tanishtirish bosqichida ham, uni mustahkamlash bosqichida ham foydalaniladi ^[4]. So'z tarkibiga ko'ra tahlildan mustaqil mashq sifatida foydalanish ham mumkin. So'zni morfologik tahlil qilish – uning leksik ma'nosini tushunishda, morfemalarni to'g'ri yozishda o'quvchilarga yordam beradigan muhim vositadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida morfologik kompetensiyani shakllantirish jarayoni nafaqat grammatik bilimlarni o'zlashtirish, balki shaxsiy nutqiy faoliyatni rivojlantirish va mustaqil fikrlashni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Morfologik tahlil orqali o'quvchilar til birliklarini semantik va grammatik jihatdan farqlashni o'rganadilar. Bu esa ularning imlo, punktuatsiya va sintaktik tuzilmani to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, morfologik kompetensiya – o'quvchilarda tilni ongli o'zlashtirish, grammatik to'g'rilikni saqlash va nutqiy faoliyatda ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky, N. Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, May 1965 – 261 p.
2. Kochkorbaevna, K. B. (2022). Formation of morphological competence of junior schoolchildren in the lessons of the native language. *Gospodarka i Innovatsie*, 22, 56–60.
3. Qosimova, K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009 y.
4. G'ulomov, A., Qodirov, B. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1998 y.
5. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов (теория и практика обучения языкам) [Текст] / Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.
6. Асадов Й. М. Таълимда компетенциявий ёндашув // “Мақтаб ва ҳаёт” методик журнал. – 2014. – № 1. – Б. 8.
7. Беленюк Н. А. Формирование социолингвистической компетенции студентов младших курсов технического вуза в процессе обучения устному общению: английский язык, базовый курс: Дис. канд. пед. наук. – Томск, 2007. – 170 с.
8. Бобиенко О. М. Ключевые компетенции личности как образовательный результат системы профессионального образования: дис. канд. пед. наук. – Казань, 2005. – 185 с.
9. Булавенко О. А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. – 2005. – № 4. – С. 21.
10. Дагбаева Н. Ж., Овчинникова М. Ф. Принципы формирования социолингвистической компетенции на начальном этапе языкового вуза // Вектор науки ТГУ, № 1 (8), 2012. – С. 103–105.
11. Зимняя И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании // Ректор вуза. – 2005. – № 6. – С. 13–29.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.